



TA'LIM JARAYONIDA TALABALARNI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASH MEKANIZMLARINI YARATISH ZARURATI VA UNI JAMIYATNI RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI.

Sapayev U.A.

Urganch davlat universiteti kata o'qituvchisi p.f.f.d.

Tayanch so'zlar: innovatsion, ta'lim innovatsiyalari, innovatsion ta'lim, pedagogik yondashuvlar, innovatsion ta'lim mexanizmlari, innovatsion faoliyat va integratsiya.

Ключевые слова: инновации, образовательные инновации, инновационное образование, педагогические подходы, инновационные образовательные механизмы, инновационная деятельность и интеграция.

Key words: innovative, educational innovations, innovative education, pedagogical approaches, innovative educational mechanisms, innovative activity and integration.

Hozirgi davr mashinasozlik tarmoqlarining jadal rivojlanishi, yuqori texnika va texnologiyalarga bo'lgan talabning oshishi natijasida jahon mexnat bozorida zamonaviy muhandislarga nisbatan ehtiyojning oshishi kuzatilmoqda. Bu jarayonlarda munosib faoliyat olib borishimiz, dunyo mamlakatlari bilan teng manfaatli hamkorlik aloqalarini yanada yuksaltirish uchun milliy kadrlarimizdan kuchli bilim, yusak darajadagi malaka, yuqori intellektual salohiyat va innovatsion fikrlash qobiliyatlarining shakllanganligi talab qilinadi. Bunday kadrlarni tayyorlash va dunyo muhandislari bilan raqobatga kirishaolishi uchun ta'lim jarayonlariga innovatsion ta'lim yangiliklarini kiritish talab qilinadi [1].

O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"[2]da mutaxassis kadrlarni ilmiy va shaxsiy sifatlarini yuqori darajada shakllantirish, ta'lim jarayonlari bilan ishlab chiqarish tarmoqlarini to'laqonli integratsiyasini ta'minlagan holda talabalarning ilmiy salohiyatini yuksaltirishga va kasbiy bilimdonligini shakllantirishga qaratilgan. Bunga, asosan, yetishtirilgan milliy kadrlarni tayyorlash tizimining yangi mazmuni, kadrlarning bilimini, malaka va ko'nikmalarini muntazam chuqurlashtirish va yangilanishini ta'minlash hamda mehnat bozori talablari va ehtiyojlari o'zgarishini hisobga olgan holda



mutaxassislar tayyorlashni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan tashkiliy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik-pedagogik va boshqa imkoniyatlarini yaratish nazarda tutilgan. Shu jihatdan ham “Oliy ta’limning maqsadi Respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojini ta’minlashga, o‘zi tanlagan mutaxassislik bo‘yicha bozor iqtisodiyoti sharoitida mustaqil ishlashga layoqatli, yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdan iboratdir [3. 88- bet]”.

Oliy ta’limning o‘rni, eng avvalo, davlatimizning barcha ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini jadal suratlarda rivojlanishini ta’minlay oladigan zamonaviy kadrlarni tayyorlash, shuningdek barqaror hayot darajalariga yerishtiruvchi o‘zimizga mos milliy innovatsion rivojlanish mexanizmlarini yaratish, hamda jamiyat va davlatning buguni va ertasini yuksaltira oladigan barcha sohalar bo‘yicha innovatsion salohiyatga ega kadrlarni shakllantirish hisoblanadi. Darhaqiqat, talabalarning innovatsion faoliyatini rivojlantiruvchi mexanizmlarini takomillashtirish – davlatimizning rivojlanish bosqichlarini, halqimizning ming yillik o‘tmishini, boy va mazmunli tariximizni, millatning aqliy va jismoniy kuchini, jamiyat va halqimizning turmush darajasini rivojlanishining asosi sifatida mamlakatimizda olib borilayotgan amaliy ishlarining oliy mezonini hisoblaniladi. Innovatsion faoliyat iqtisodiy-ijtimoiy hayot tizimining shakllanishi, o‘zgarishi yoki inqirozga yuz tutishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Innovatsion faoliyat rivojlanib borishi natijasida jamiyat va davlat ham rivojlanib boradi. Biz O‘zbekiston Respublikasining bugunini va buyuk kelajagini qurib bo‘lmaydi. Chunki innovatsion faoliyatni shakllantirish jamiyat va millat ravnaqining boy poydevori sanaladi. Demak, jamiyatning innovatsion faoliyati beqiyos darajada keng manoga ega bo‘lib, kreativ faoliyat, bunyodkorlik, zamonaviy texnika va texnologiyalarni yaratish, zamonaviy kasb-hunarlarini mohir egasi bo‘lish, ta’limning yuksak darajalarini egallash bilan birga insoniy sifatlariga ega bo‘lish, ilmiy va kasbiy faoliyatlarini rivojlantirish bilan shug‘ullanish kabilarni o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston Respublikasida talaba-yoshlarining innovatsion faoliyatini egallashlariga e’tibor qaratilishining boisi ham ana shundadir. Chunki innovatsion faoliyat har bir insonning hayoti va faoliyatida, mehnat qilishida, milliy qadriyatlarni va urf-odatlarini tiklashda, mo‘tabar zaminda jamiyat uchun xizmat qilishda, tinchlik va osoyishtalikni, barqarorlikni saqlashda muhim o‘rin tutadi.

Innovatsiya – bu zamon talabiga asoslangan holda ishlab chiqarish jarayonlari va mahsulotlarning sifat ko‘rsatgichlarini o‘sish samaradorligini ta’minlash borasidagi tadbir qilingan yangilik hisoblaniladi. Shuningdek, shaxsning aqliy faoliyati, uning o‘y fikrlari, ijodkorlik faoliyati, ixtirolari, ratsionalizatorligi va kashfiyotlari natijasida yangiliklarni dunyoga kelish jarayoni hisoblanadi.

“Innovatsiya” atamasi lotincha “novatio” soʻzidan tarjima qilinganda “yangilanish” yoki “oʻzgarish” maʼnolarini anglatadi.

Innovatsiya tushunchasi birinchi boʻlib XIX asrning ilmiy tadqiqotlarida paydo boʻlgan. “Innovatsiya” tushunchasi oʻzining yangi hayotini “Innovatsion kombinatsiyalar”ni tahlil qilish, iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi rivojlanishlarning oʻzgarishlarini tushuntirish maqsadida XX asrning boshlarida Avstriyalik va Amerikalik iqtisodchi Y.Shumpeter oʻzining ilmiy ishlarida “Innovatsiya” atamasini qoʻllashga kiritgan dastlabki olimlardan edi [4].

Innovatsiya tushunchasi taʼlim va tarbiya jarayonlarida ham keng qoʻllaniladi. Pedagog olimlarning taʼkidlashicha, oliy taʼlim jarayonidagi innovatsiyalar – bu taʼlim jarayonida faoliyat koʻrsatayotgan professor–oʻqituvchilar va taʼlimga aloqador xodimlar tomonidan taʼlim jarayoniga yangicha yundashuvlar asosida tashkil qilish va talabalarga zamonaviy oʻqitish muhitini shakllantirish bilan belgilanadi [5].

N.A.Muslimov, M.H.Usmonboyeva, D.M.Sayfurov va A.B.Toʻraevlarning taʼkidlashicha, innovatsiya tushunchasi “Muayyan tizimning ichki tuzilishini oʻzgartirishga qaratilgan faoliyat”dir deb taʼrif berishgan [6, 10-bet].

Oliy taʼlim muassasalarida talabalarning innovatsion oʻqitish texnologiyalari “Taʼlim innovatsiyalari” yoki “Innovatsion taʼlim” tushunchalari bilan bevosita bogʻliqdir.

Innovatsion taʼlim berish tushunchasi – bu taʼlim oluvchilarda zamonaviy kreativ gʻoyalarni vujudga keltiruvchi taʼlimning innovatsion mezon va qoidalarni vujudga keltirish, shuningdek, oʻzga shaxslar yoki shaxslar jamoasi tomonidan yaratilgan zamonaviy ilgʻor taʼlim gʻoyalari, meʼyorlari va qoidalarini tabiiy saralanish natijasida qabul qilishga oid taʼlim sifatlarini, kasbiy malaka va koʻnikmalarini shakllanish jarayonidagi taʼlimni anglash mumkin.

Oliy taʼlim muassasalarida zamonaviy oʻquv faoliyatini tashkil qilish va sifatli taʼlim berishni amalga oshirish maqsadida taʼlim innovatsiyalaridan foydalanish kutilgan natijalarga erishish imkoniyatini beradi. Taʼlim innovatsiyalari – bu taʼlim sohalarida yoki talabalarni oʻquv faoliyatini tashkil qilish jarayonida mavjud yoki sodir boʻlishi mumkin boʻlgan muammolarni yangicha pedagogik yondashuvlar asosida yechimlarini samarali va kafolatli boʻlishiga xizmat qiluvchi yangi metod va texnologiyalarni yaratish va qoʻllash imkoniyatlari tushuniladi.

Innovatsion faoliyat tushunchasi bilan aloqador boʻlgan muhim tushunchalardan biri bu insonning innovatsion salohiyati boʻlib, bu talaba yoki mutaxassis kadrlarning bilim darajasi, ilmiy salohiyati, bilim bazasi, shaxsiy ijobiy fazilatlarining rivojlanganligi va zamonaviy texnika va texnologiyalarni boshqara olish xususiyatlari bilan belgilanadi [7, 33-bet]. Innovatsion salohiyatni



shakllantirish va rivojlantirish esa oliy ta'lim jarayonini innovatsion rivojlantirish mexanizmlarini vujudga keltirish va uni ta'lim jarayoniga tadbiq qilish asosida belgilanadi.

Oliy ta'lim jarayonini innovatsion tarzda tashkil qilish, talabalarning innovatsiyalar bilan shug'ullanishlariga imkoniyatlar yaratuvchi mexanizmlarni vujudga keltirish va oliy ta'lim muassasalari bilan ishlab chiqarish korxonalari va texnik xizmat ko'rsatish tarmoqlari o'rtasida integratsiyani amalga oshirish natijasida texnika yo'nalishidagi talabalarni innovatsion fikrlashlarini amaliyotga yaqinlashtirish imkoniyatiga ega bo'lish, shuningdek, mustaqil ilmiy faoliyat yuritish va zamon talablariga to'laqonli javob bera oladigan mutaxassislar bo'lib yetishishlariga imkoniyat beradi.

Adaboyotlar:

1. U.A. Sapayev, "Innovatsion ta'lim muhitini shakllantrishda texnik oily ta'lim muassasalari bilan ishlab chiqarish korxonalarining integratsiyasi", ILM SARCHASHMALARI 2022 YIL 9-SON, 174-176 betlar.
2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997 y. 64b, 31-60 betlar.
3. Qurbonov Sh. va boshqalar. "Barkamol avlod orzusi". Toshkent: "Sharq", 1998. – 144 b.
4. Shumpeter I. "Teoriya ekonomicheskogo razvitiya (issledovanie predprinimatelskoy pribyli, kapitala kredita, protsenta i sikla konyuktury)" – M: Progress, 1982, S, 159.
5. Shisharina N.V. "Innovatsii v vospitanii: xarakteristika kriteriev, priznakov, usloviy" // https://article/n*innovatsii-v-vospitanii-harakteristaka-kriteriev-priznakov-usloviy.
6. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. "Innovatsion ta'lim texnologiyalari" – o'quv-metodik qo'llanma Toshkent: 2015. – 208 bet.
7. Otajonov Sh.I. "Innovatsiya faoliyati infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari samaradorligini oshirish" iqtisodiyot fanlari doktori (Doktor of Science) ilmiy darajasini olish yozilgan diss. Toshkent: - 2018 y. 260 b.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada texnika oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonini innovatsion tarzda tashkil qilish, talabalarning innovatsiyalar bilan shug'ullanishlariga imkoniyat beruvchi innovatsion ta'lim mexanizmlarni vujudga keltirish va oliy ta'lim muassasalari bilan ishlab chiqarish korxonalari hamda texnik xizmat ko'rsatish tarmoqlari o'rtasida amaliy integratsiyani amalga oshirishning ilmiy asoslari tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются организация учебного процесса технических вузов инновационным способом, создание инновационных образовательных механизмов, позволяющих студентам заниматься инновациями, обеспечение производственных предприятий и технических услуг высшими учебными заведениями. В статье анализируются научные основы реализации практической интеграции между отраслями.

SUMMARY

In this article, the organization of the educational process of technical higher educational institutions in an innovative way, the creation of innovative educational mechanisms that allow students to engage in innovations, and the provision of production enterprises and technical services with higher educational institutions are discussed in this article. the scientific bases of implementation of practical integration between branches are analyzed.